TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

№3. [3]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS, SCIENCE AND TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY ELEKTRON JURNAL

№ 083688

ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025

2025-yil, №3/[3]-son

“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY *ELEKTRON JURNALI*

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
Bosh muharrir o‘rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.
Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
Tahrir hay’atining xalqaro a’zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay’ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), dots.
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.
Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).
Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).
Mardiyev Nurali - i.f.n, dots.
Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.
Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.
Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD).
Dehkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).
Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).
Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).
Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).
Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.
Namazov Ixtiyor Choriyevich - q.x.f.d. (DSc), dots.
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.
Atabayev Ma’ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.
Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr 725 sahifa. E’lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi.

M U N D A R I J A

Iqtisodiyot fanlari

Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
Mehnat munosabatlarini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....8
Qodirova Xolida Salimovna
Qoraqalpog‘iston Respublikasida ziyorat turizmini zamonaviy shakllarini barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....14
Norqobilov Jahongir Isroil o‘g‘li
Avtotransport xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy baholash mohiyati.....23
G‘iyosov Ilhom Karimovich, Raxmatov Oybek Yangiboyevich
Qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyatining tarkibi va uning umumiy hajmini baholash.....33
Ибрагимова Мадина Исмоиловна, Хамрокулова Райхона Фаридуновна
Демографические изменения и их влияние на макроэкономическую динамику.....42
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Xudoyberdiyev Safar Asadullo o‘g‘li
Eksport salohiyatidan samarali foydalanishda mahsulot sifatini oshirishning o‘rni.....49
Бегматов Хусан Эгамкулович
Молиявий ҳисоботларни тузишда хорижий тажрибани қўллаш масалалари.....60
Vafoyeva Dilafruz Ikromovna
Sun’iy intellekt, blockchain va kripto-valyutalar: iqtisodiy o‘zgarishlar va yangi imkoniyatlar.....74
Ochilov Ilhom Sayitqulovich
Qishloq xo‘jaligi iqtisodiy samaradorligiga global iqlim o‘zgarishi ta’siri tahlili.....82
Bustonov Komiljon Kumakovich, G‘aniev Baydulla Toshmurodovich
Qishloq xo‘jaligida turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish.....89
Abdullaeva Go‘zal Altinbekovna, Abdullaev Altinbek Yangibaevich
Tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligi holatining tahlili va rivojlanish tendensiyalari.....96
Po‘latov Sherzodbek Oybek o‘g‘li
Kichik korxonalar hisob siyosatida soliq hisobini tutgan o‘rni.....117
Zikirov Zafarjon Izzatillo o‘g‘li
Qo‘shilgan qiymat solig‘idagi salbiy farq va ortiqcha to‘lov yuzaga kelishi hamda ushbu tushunchalar farqining mazmuni va iqtisodiy mohiyati.....126
Рашидов Жамшид Хамидович
Яшил иқтисодиётни инновацион бошқаришда хавф-хатарларнинг таъсири ва уни камайтириш йўллари.....133
Zulfiqarov Xolbek Ubaydulla o‘g‘li
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini moliyalashtirish.....138
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
Mamlakatimizda turizm klasterini yaratish va davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish.....145
Davlatov Sanjar Abdimannonovich
Qishloq xo‘jaligi sohasida biznes muhitini rivojlantirish.....153
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna
Joriy aktivlar auditida tahliliy amallarni qo‘llashning tashkiliy jihatlari.....164
Расулова Мухаббат Тишабаевна
Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш ва хорижий тажрибалар.....173
Zakimov Aybek Muratbayevich
Awil xojaliǵinda kooperaciyani rawajlandiriwdiń institucionalliq qatnası.....183
Yusupdjanova Nargiza Utkirovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug‘bek qizi
O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish stavkasining iqtisodiyotga ta’siri.....189

Tashmatova Dildora Abdusaitovna
O‘zbekistonda marketing faoliyati va unga doir ustuvor yo‘nalishlar……..197
Valijonov Nurullo Nodirbek o‘g‘li
Qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtish……..203
Ataxanov Farhodbek Abdumajidovich
Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning huquqiy-moliyaviy asoslari……212
Ruzmetov Qudrat Shermetovich, Turgunov Tolibjon Tursunovich
Raqamli boshqaruv tizimini agrosanoat majmuasida qo‘llanilishi……...…...216
Qarshiyev Istamjon Hayitmurod o‘g‘li
O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning roli va ularning yaimga ta’sirini baholash……....220
Abdullayev O‘tkir Abduraim o‘g‘li
Dukkakli ekinlar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari……....226
Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o‘g‘li
Mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish……234
Kadirova Maral Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich
Milliy kooperativ birlashmalarning rivojlangan mamlakatlardagi institutsional modeli va O‘zbekiston iqtisodiyotida adaptatsiya imkoniyatlari……...240
Turobova Hulkar Rustamovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich
Qishloq xo‘jaligi chiqindilarini ekologik toza o‘g‘itga aylantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxiga ta’siri……...……246
Насиров Дилшод Фархадович, Уразов Махмуджон Мусинович
Человеческий капитал как фактор устойчивого роста в инновационной экономике……251
Yusupov Zulunjon Ziyoydinovich
Fermer xo‘jaliklarini lizing asosida texnik modernizatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish...257
Джамалова Асаль Сайдувалиевна
Зарубежный опыт повышения эффективности цепочки создания добавленной стоимости в овощеводстве……..264
Murtolibova Madina Mirjamshid qizi
O‘zbekistonda mehmonxonalar boshqaruvini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari……..…269
Акбарова Нилуфар Неъматжонова
Марказий Осиё давлатларида мол-мулкга солиқ солиш тизими таҳлили……..…274
Bexzod Umarov Batirovich
Yashil menejment tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari……...291
Mamaev Bahodirjon Nosirovich
O‘zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda zamonaviy klasterlash……..…297
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Khusanboy
The ways of improving ecotourism in Uzbekistan……305
Ergashev Ilhomjon Ikromovich
Kichik biznes subyektlarining investitsion jozibadorligini baholash yo‘llari……....314
Sadikov Zafarbek Adilbekovich
Milliy valyuta kursiga ta’sir qiluvchi omillar……....321
Усмонов Шокиржон Алиевич
Фонд бозорларида банкларни фаоллигини ошириш.....328
Иминов Зафаржон Махамматиброхимович
Аҳоли бандлиги бўйича кўп вариантли статистик прогнозлаш жараёни.....337

Saidova Dildora Nurmatovna, Nasulloyeva Malika Botir qizi
Global iqlim o‘zgarish sharoitida resurs va suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribasi……346
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husan Bahrom o‘g‘li
O‘zbekistonda ekoturizm rivojlanishida innovatsiyalarning roli……...353
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich
Xalqaro bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish……361
Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li
Respublika proffessional ta’lim muassasalarida samarali boshqaruvning rivojlanish tendensiyalari……375
Abdullayeva Zulfiya
O‘zbekiston turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va samaradorlik omillari……384
Kamolova Mohinur Iskandarovna
Turizm sohasida xizmatlar sifatining iqtisodiy ahamiyati va multiplikativ ta’siri……391
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li, Xakimova Oygul Axtamdjonovna
Yangi O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyoti sharoitida ayollar mehnatini tashkil etishning dolzarb masalalari……395
Bobojonova Zarnigor
Singulyar iqtisodiyotning sanoat 4.0 va raqamli iqtisodiyot sintezi Markaziy Osiyo temir yo‘l sanoati misolida……403
Эргашев Уйғун Жабборович
Комерал назоратни ривожлантиришда рақамли технологияларнинг роли……416
Bobojonova Zarnigor
Temir yo‘l sanoatini raqamlashtirishda singulyar va amaliy iqtisodiyotning tatbiq etilishining xususiyatlari……424
Mamatqulov G‘ulom
Pochta aloqasi korxonalari faoliyatida raqamlashtirilgan xizmat turlarini rivojlantirish……433
Tursunova Nigora Xusniddinovna
Development of a model for effective management of the company's sustainable development……445
Mamatqulov G‘ulom
Raqamli transformatsiya va pochta tizimi: ilg‘or davlatlar tajribasi va O‘zbekiston misolida iqtisodiy tahlil……450
Urinova Xulkar Shokirovna, Normamatova Zilola Sobirjonovna
yashil iqtisodiyot — kelajak iqtisodiy taraqqiyotining asosi……458
Yakubov Abdurahmon
Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy asoslari: harakatlar strategiyasining Konstitutsiyaviy mohiyati va amaliy natijalari……463
Xalilova Aziza Rustamovna
Makroiqtisodiy omillarning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri……468
Юсупов Азиз Шуҳратович
Тижорат банклари валюта операцияларидаги рисклар ва уларни камайтириш йўллари……473
Бабаматов Толиб Ҳакимович
Мамлакатимизда ислом молиявий хизматларни жорий этишнинг иқтисодий аҳамияти……482
Абсаматов Анвар Эргашевич
Мамлакатимиз банкларида активлар самарадорлигини рискка асосланган назоратини ривожлантириш йўллари……490
Максумханова Азизахон Мукадировна
Қишлоқ аҳолиси бандлигини таъминлашда тадбиркорликнинг аҳамияти……499

Kaxorova Anora Nusratovna, Xaydarova Sitora Suranbay qizi
Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida rivojlanishni iqtisodiy asoslash……..507
Tashxodjayeva Gulnoza Saydamxodjayevna
Soya ekinlarining agrotexnologik xususiyatlari va hosildorlikka ta’sir etuvchi omillar……512
To‘raeva Muyassar Rasul qizi
Meva-sabzavot yetishtirish hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili……...518
Khujamkulova Khosiyat Ishbayevna, Ergashev Rakhmonali Shavkat ogli
The role of marketing in agriculture of the Republic of Uzbekistan……..…527
Машарипов Озод Алимович, Минутдинову Лилию Тагировну
Комплексный подход к постановке управленческого анализа на предприятии в системе управленческого учета.....533
Kurambayev Alisher Saburbayevich
Jahon iqtisodiyotida yo‘lovchi tashish xizmatini tashkil etishda temir yo‘l transportining o‘rni va ahamiyati.....540
Dexkanova Nilufar Sagdullaevna
Jahon miqyosida chorvachilikning rivojlanish tendensiyalari.....545
Uralov Eliboy Omonovich
O‘zbekiston mintaqalari sanoatini hududiy tarkibini takomillashtirish.....555
Ko‘chimov Abdujamil Hamraqulovich, Murotjonova Mubina Dilshod qizi
Ishlab chiqarishni raqamlashtirish: O‘zbekiston misolida yangi imkoniyatlar va muammolar……559
Урунов Асрор Алижонович, Косимова Малика Хомидходжаевна, Мусаева Дилноза Дилшатовна
Современные организационно-экономические подходы к развитию телерадиовещательной отрасли Республики Таджикистана: проблемы, модель и перспективы……566
Azamaliyeva Madinaxon
Ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish imkoniyatlari……...580
Ko‘chimov Abdujamil Hamraqulovich, Murotjonova Mubina Dilshod qizi
Raqamli transformatsiya davrida O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar va ularning yechimlari……587
Арслонов У.У.
Ўзбекистон ҳудудларида махсус иқтисодий зоналар ривожланишига инвестициялар жалб этишни фаоллаштириш омиллари……594
U.Allambergenova, S.Sarsenbaev
Problems of improving business of budget institutions and use of budget funds……...603
Арипова Анна Михайловна
Совершенствование бухгалтерского учёта и аудита в республике узбекистан на основании международного стандарта мсфо (ifrs) 3 “объединения бизнеса”……..608

Qishloq xo‘jaligi fanlari

Yuldashova Zebo Zuxrobovna, Sulaymonova Gulasal Nurilloevna
Bug‘doy kasalliklari: turlari, belgilari va kurash choralari……613
Ishmuratov Shavkat Saparovich, Saxadullayeva Iroda Xayrulla qizi, Xurramova Madina Sherali qizi
Arpa donining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga tuproq-iqlim sharoitlarini ta’siri……...619
Sattarova Ra’no Kadirovna
G‘o‘za o‘simligining kasalliklari va ularga qarshi kurash usullarining samaradorligi……..……623
Dexqonova Diloraxon Rasuljon qizi, Yuldasheva Charos Kamoliddin qizi
Sharqiy arnasoy suv havzasida uchrovchi oq sla (sander lucioperca l) balig‘ining meristik belgilari taxlili……628

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR VA ULARNING YECHIMLARI

KO‘CHIMOV ABDUJAMIL HAMRAQULOVICH
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, i.f.n.
MUROTJONOVA MUBINA DILSHOD QIZI
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
E-mail: murotjonovamubina1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonida O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi bilan birga yuzaga kelayotgan kiberxavfsizlik muammolari, raqamli nomutanosiblik va kadrlar yetishmovchiligi kabi omillar iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlari, statistik ma’lumotlar va xalqaro tajribalarga asoslangan holda chuqur tahlillar berilgan. Shuningdek, maqolada iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, iqtisodiy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, qonunchilik, strategiya, O‘zbekiston.

Annotation. This article analyzes the factors threatening economic security in Uzbekistan during the process of digital transformation and explores ways to address them. Alongside the widespread adoption of digital technologies, issues such as cybersecurity threats, digital inequality, and a shortage of qualified personnel are negatively impacting economic security. The article provides in-depth analysis based on presidential decrees, government resolutions, statistical data, and international experience. It also presents specific proposals and recommendations aimed at strengthening economic security in Uzbekistan.

Keywords: digital transformation, economic security, cybersecurity, digital economy, legislation, strategy, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье проанализированы факторы, угрожающие экономической безопасности Узбекистана в процессе цифровой трансформации, а также пути их устранения. Наряду с широким применением цифровых технологий возрастают проблемы кибербезопасности, цифрового неравенства и нехватки квалифицированных кадров, что негативно влияет на экономическую безопасность. В статье приведён углублённый анализ, основанный на указах Президента Республики Узбекистан, постановлениях правительства, статистических данных и международном опыте. Также представлены конкретные предложения и рекомендации, направленные на укрепление экономической безопасности.

Ключевые слова: цифровая трансформация, экономическая безопасность, кибербезопасность, цифровая экономика, законодательство, стратегия, Узбекистан.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta’minlash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish kabi ijobiy jihatlarga ega. Biroq, bu transformatsiya bilan birga iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi bir qator omillar ham paydo bo‘lmoqda. Ushbu maqolada aynan shu tahdidlar, ularning sabab va oqibatlari, hamda bartaraf etish yo‘llari keng yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichi, balki ayni paytda milliy xavfsizlik, xususan iqtisodiy xavfsizlik sohasida ham yangi tahdidlar va chaqiriqlarni yuzaga keltiruvchi jarayondir. Bu borada xalqaro va milliy adabiyotlarda keng qamrovli tahlillar mavjud bo‘lib, ular raqamli texnologiyalar va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni turli rakurslardan yoritadi.

Castells (1996) o‘zining “Axborot davri” asarida raqamli texnologiyalar va axborot tarmoqlarining kuchayishi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarga qanday ta’sir qilishini tahlil qilgan. Uning fikricha, raqamli muhitda iqtisodiy xavfsizlik yangi shakllarda ifodalanadi – bu esa axborot oqimlarini boshqarish, kiberxavfsizlik va texnologik mustaqillikni o‘z ichiga oladi.

Schwab (2016) esa “To‘rtinchi sanoat inqilobi” kitobida raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sish uchun katta imkoniyatlar yaratishini ta’kidlagan holda, yangi xavf-xatarlar – kiberhujumlar, raqamli nomutanosiblik, mehnat bozoridagi disbalanslar, axborot asimmetriyasi haqida ogohlantiradi. Aynan shu jihatlar iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

O‘zbekiston kontekstida bu masala so‘nggi yillarda dolzarb bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ–4851-sonli qarori asosida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat boshqaruvini avtomatlashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘zda tutadi. Ammo bu strategik hujjatda ko‘zda tutilgan islohotlar ayni vaqtda yangi iqtisodiy tahdidlarni ham yuzaga keltirishi mumkin, jumladan: texnologik asoratlar, importga qaramlik va kiberxavfsizlikdagi zaifliklar.

Xalqaro miqyosda esa BMTning UNCTAD (2021) va OECD (2022) hisobotlarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri chuqur o‘rganilgan. Bu hisobotlarda rivojlanayotgan davlatlar duch kelayotgan muammolar – texnologik asorat, raqamli nomutanosiblik, hamda texnologik gigamonopoliyalarga bog‘liqlik kabi tahdidlar qayd etilgan. Ayniqsa, xorijiy texnologik kompaniyalarga qaramlik, davlatning axborot suverenitetiga putur yetkazishi mumkinligi haqida jiddiy ogohlantirishlar bor.

Ayrim tadqiqotchilar, masalan J. Nye (2020) va T. Rid (2018), kiberxavfsizlikni iqtisodiy xavfsizlikning asosiy komponenti sifatida ko‘radi. Ularning tadqiqotlarida kiberhujumlar natijasida iqtisodiy tizimlarda yuzaga keluvchi beqarorliklar, moliyaviy yo‘qotishlar va davlat suverenitetiga tahdidlar keng yoritilgan. Bu holatlar O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonida xavfsizlik choralarini izchil va kompleks yondashuv asosida olib borishini talab etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya iqtisodiy xavfsizlik uchun ikkiyoqlama xususiyatga ega: bir tomondan, u innovatsiyalar va iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini yaratadi, ikkinchi tomondan esa yangi turdagi tahdidlarni yuzaga keltiradi. O‘zbekiston bu borada muayyan normativ-huquqiy asoslarni shakllantirgan bo‘lsa-da, amaliyotda hali hal qilinmagan ko‘plab muammolar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli transformatsiya bu — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv tizimlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tubdan yangilanishi jarayonidir. Bu transformatsiya davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash, byurokratiyani kamaytirish, xizmatlar sifati va tezligini oshirish bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikning yangi bosqichiga chiqish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF–6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ushbu yo‘nalishdagi muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur strategiya doirasida iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha yo‘nalishlari — moliya, bank, soliq, bojxona, savdo, qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida raqamlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat xizmatlarining 60% dan ortig‘i elektron shaklda ko‘rsatilgan, bu esa inson omilini kamaytirib, korrupsion xavflarni sezilarli darajada pasaytirdi. Xususan, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (my.gov.uz) orqali yiliga o‘rtacha 50 milliondan ortiq ariza qabul qilinmoqda.

Shuningdek, Soliq qo‘mitasi tomonidan joriy etilgan elektron fiskal tizim iqtisodiy shaffoflikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli monitoring orqali nafaqat daromadlar, balki xarajatlar ham aniqlik bilan nazorat qilinmoqda, bu esa davlat byudjetiga tushumlarni ko‘paytirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya iqtisodiy xavfsizlikka ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatmoqda:

- Faol ta’sir — jinoyatlarning oldini olish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.
- Passiv ta’sir — tizimlardagi nosozliklar yoki texnologik tahdidlar (masalan, DDoS hujumlar, ma’lumotlar o‘g‘irlanishi) iqtisodiy faoliyatga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Shu bois, raqamli transformatsiyani nafaqat texnologik, balki milliy xavfsizlik siyosatining asosiy komponenti sifatida ko‘rish muhimdir.

ASOSIY NATIJALAR VA TAHLILLAR

Raqamli transformatsiya iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratgani holda, bir qator tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu tahdidlar iqtisodiy

xavfsizlikka bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyida O‘zbekiston sharoitida aniqlangan asosiy tahdidlar yoritiladi:

1. Kiberxavfsizlik tahdidlari: Raqamli tizimlarga asoslangan iqtisodiy faoliyat kiberxavflarga nisbatan juda zaif. 2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, yiliga o‘rtacha 150 mingdan ortiq kiberhujumlar aniqlangan, ularning 37 foizi davlat organlariga qaratilgan.

2022 yil 4 iyuldagi Prezident qarori — PQ–308-son “Kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hujjati asosida Davlat kiberxavfsizlik markazi tashkil etilgan va bu sohada kompleks ishlar boshlangan bo‘lsa-da, hali ham tizimlar o‘zining to‘liq himoyasini ta’minlay olmagan.

2. Raqamli savodsizlik: Aholining muayyan qismi, ayniqsa qishloq joylarda, raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega emas. Bu esa xizmatlar va ma’lumotlardan foydalanishdagi nomutanosiblikka olib keladi. 2023 yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 34% dan ortig‘i raqamli savodxonlik darajasining pastligidan aziyat chekmoqda.

3. Texnologik qaramlik: Ko‘plab axborot tizimlari xorijiy dasturiy ta’minot va platformalarga bog‘langan. Bu esa strategik iqtisodiy mustaqillikka xavf tug‘diradi. Masalan, moliyaviy sektorning ko‘pchilik bo‘lagi chet elda ishlab chiqilgan platformalarga tayanadi. Har qanday geosiyosiy tanglik texnologik ta’minotning uzilishiga olib kelishi mumkin.

4. Ish o‘rinlarining qisqarishi: Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari natijasida an’anaviy ish o‘rinlari qisqarib bormoqda. Iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy jihatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu omil ijtimoiy norozilik, ishsizlik va daromadlar nomutanosibligini keltirib chiqaradi.

5. Yashirin iqtisodiyotning moslashuvi: Raqamli nazoratning kuchayishi natijasida yashirin iqtisodiyot qisqarayotgan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda u raqamli vositalar orqali yangi shaklga moslashmoqda (masalan, kriptovalyutalar orqali noqonuniy bitimlar).

Ushbu tahdidlar iqtisodiy barqarorlikka va investitsiya muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun har bir tahdidga mos kompleks choralar ishlab chiqilishi zarur.

Raqamli transformatsiya jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun samarali qonunchilik va mustahkam institutsional asos zarur. O‘zbekiston hukumati bu borada bir qator muhim qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilgan bo‘lib, ular raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga yo‘l ochmoqda.

2020-yil 5-oktabrdagi Prezident Farmoni (PF–6079-son) asosida tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli transformatsiya jarayonini boshqarishda muhim hujjat hisoblanadi. Strategiya asosan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Shuningdek, unda kiberxavfsizlikni mustahkamlash, raqamli savodsizlikni bartaraf etish va kadrlar tayyorlash masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

2021-yil 24-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun kiberxavfsizlikni ta’minlashning yuridik asosini yaratdi va raqamli infratuzilma, davlat organlari, bank tizimlari, xususiy sektorda kiberhujumlar va xakerlikka qarshi kurashish uchun zarur choralarni belgilab berdi. Bu qonun kiberhujumlar, axborot oqimining xavfsizligi, ma’lumotlarni himoya qilishni o‘z ichiga oladi.

Prezidentning 2021 yil 3 maydagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarori bilan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid tizimli yondashuvning yana bir bosqichi amalga oshirildi. Ushbu qarorda raqamli xizmatlarni taqdim etuvchi korxonalar va davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni boshqarish uchun zarur institutsional tuzilmalarni yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan raqamli iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llaniladigan strategik loyihalar ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va mustahkamlash uchun turli sohalarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar va farmonlar iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi. Raqamli iqtisodiyotni xavfsiz rivojlantirishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik masalasi yanada dolzarblashgan. Raqamli infrastrukturaga va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj oshgani sari, kiberhujumlarning salbiy oqibatlari yanada kuchaymoqda. O‘zbekiston hukumati ushbu tahdidni oldini olish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirgan.

•Kiberxavfsizlikka oid ta’lim dasturlari: 2022 yilda davlat tomonidan tashkil etilgan “Kiberxavfsizlik Akademiyasi” orqali yosh mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish boshlandi. Bu akademiya davlat organlari va xususiy sektorda kiberxavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi.

•Xavfsizlik protokollarining joriy etilishi: Elektron xizmatlar va tizimlar bo‘yicha yangi xavfsizlik protokollari va standartlari ishlab chiqildi. Ushbu standartlar yordamida bank tizimlari, davlat xizmatlari va moliyaviy tranzaksiyalarni xavfsiz tarzda amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

2. Raqamli nomutanosiblikni bartaraf etish: Raqamli nomutanosiblik — bu aholi turli ijtimoiy guruhlari va hududlar o‘rtasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashda mavjud bo‘lgan farqlarni anglatadi. O‘zbekiston hukumati bu masalani hal qilish uchun turli ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni amalga oshirmoqda.

•Raqamli inklyuzivlikni ta’minlash: Prezident Farmoni PF–6079-songa ko‘ra, barcha hududlarda “Raqamli o‘quv markazlari” tashkil etilmoqda. Bu markazlar

aholining raqamli texnologiyalarni o‘rganishiga, yangi imkoniyatlardan foydalanishiga yordam beradi. Xususan, qishloq joylarda raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar ko‘paytirilmoqda.

•Internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish: O‘zbekistonning 2025 yilga qadar barcha hududlarga tezkor internet tarmog‘ini olib kirish bo‘yicha rejalari bor. Ushbu tashabbus orqali aholining barcha qatlamlari va hududlari uchun raqamli imkoniyatlar bir xil taqdim etiladi.

3. Raqamli kadrlar tayyorlash va ilm-fan sohasini qo‘llab-quvvatlash: Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda muhim omil sifatida malakali kadrlar tayyorlash zarur. O‘zbekiston hukumati bu borada quyidagi qadamlarni qo‘llab-quvvatlamoqda:

•Texnik ta’limni modernizatsiya qilish: 2021 yilda Prezident qarori bilan O‘zbekistonda “Raqamli texnologiyalar sohasida yangi o‘quv dasturlari” joriy etilgan. Ushbu dasturlar orqali texnik mutaxassislarni, xususan, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, va boshqalar bo‘yicha kadrlar tayyorlash kengaytirilmoqda.

•Xalqaro tajriba almashish: O‘zbekiston, shuningdek, xalqaro texnologiya va ilm-fan markazlari bilan hamkorlikni kengaytirib, tajriba almashmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Osiyo taraqqiyot banki bilan tuzilgan shartnomalar asosida, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha birgalikda loyihalar amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya davrida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash O‘zbekistonning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ma’lumki, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi texnologiyalar va innovatsion tizimlarni joriy etish iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, biroq bu jarayon kiberxavfsizlik, raqamli nomutanosiblik va malakali kadrlar tayyorlash kabi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Shunday ekan, O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotning xavfsiz va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun bir qator samarali qonunchilik, normativ hujjatlar, va strategik chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi jarayonida quyidagi asosiy xulosalar chiqarilishi mumkin:

1. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun mustahkam yuridik asos: O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan strategiyalar, farmonlar va qonunlar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va xavfsizligini ta’minlaydi. Shuningdek, hukumat raqamli xizmatlarning samaradorligini oshirish va raqamli muhitda yuridik jihatdan himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

2. Kiberxavfsizlikni mustahkamlash: O‘zbekiston kiberxavfsizlikka alohida e’tibor qaratmoqda. Kiberhujumlar va raqamli tahdidlarning oldini olish uchun yangi qonunlar qabul qilindi va xavfsizlik standartlari joriy etildi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

3. Raqamli nomutanosiblikni bartaraf etish: O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotda nomutanosiblikni bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlari, ayniqsa

qishloq hududlaridagi raqamli xizmatlarga kirishni kengaytirishga yordam beradi. Bu jarayonlar orqali iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

4. Xalqaro tajriba va hamkorlik: O‘zbekiston dunyo tajribasini inobatga olgan holda, raqamli iqtisodiyot va kiberxavfsizlik sohasida rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan foydalanmoqda. Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya, AQSH va Evropa Ittifoqi kabi davlatlarning tajribalari O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda katta yordam bermoqda.

5. Innovatsion kadrlar tayyorlash va raqamli ta’lim: Malakali kadrlar tayyorlash va raqamli ta’limni rivojlantirish O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotiga bo‘lgan asosiy ehtiyojlardan biridir. Bu borada davlat tomonidan amalga oshirilgan tashabbuslar, jumladan, raqamli ta’lim markazlari tashkil etilishi va yangi o‘quv dasturlarining joriy etilishi mamlakatning raqamli xavfsizlikka qaratilgan harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonidagi muvaffaqiyati, uning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan e’tibori va amalga oshirilayotgan kompleks choralar bilan bog‘liq. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga, xalqaro tajriba bilan hamkorlikni kuchaytirishga va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akhmedov, M. (2021). O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti va xavfsizligi: Dasturlar va chora-tadbirlar. Tashkent: O‘zbekiston iqtisodiyot va moliya akademiyasi.

2. Presidential Decree No. PF–6079. (2022). On the development of the digital economy in Uzbekistan. Official Gazette of the President of the Republic of Uzbekistan, 6, 45–47.

3. Singapur Hukumati. (2021). Smart Nation and Digital Government Group: Building a digital economy. Retrieved from https://www.smartnation.gov.sg/

4. World Bank. (2021). Uzbekistan: Digital economy and its potential for sustainable growth. World Bank Report. Retrieved from https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan

5. European Commission. (2020). Digital Single Market: Creating a Digital Europe. Retrieved from https://ec.europa.eu/digital-strategy/

6. Murotjonova Mubina Dilshod Qizi. “Raqamli iqtisodiyot va innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning muhim masalalari”. Advance Scientific Research xalqaro jurnali. 3.07 (2023): 195-200.

7. Murotjonova Mubina Dilshod Qizi. “Turli davlatlarning raqamli iqtisodiyot sohasidagistrategiyalari”. Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali 3.05 (2023): 34-41.

“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY *ELEKTRON JURNALI*

2025-yil, №3/[3]-son

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar, Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy